

MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI MNEMOTEXNIKA ASOSIDA ERTAKLAR BILAN TANISHTIRISH

Qurbanova Shalola Ilhomiddinovna

Navoiy davlat pedagogika instituti ta‘lim va tarbiya nazariyasi
va metodikasi (maktabgacha ta‘lim) 1-bosqich magistranti

M. B. Kubayeva

Ilmiy rahbar: p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Maskur maqolada ertaklarning bolalar hayotidagi o‘rni, xalq ertaklari haqida ma’lumot. Maktabgacha yoshdagi bolalarni mnemotexnika orqali xotira va eslab qolish qobiliyatini rivojlantirish, mnemotexnika usuli bolaning rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim tashkiloti, bola, ertak, mnemotexnika, xotira, diqqat, tasavvur, qobiliyat, metod.

Аннотация:

В этой статье роль сказки в жизни детей, информация о народных сказках. Обсуждается развитие памяти и припоминания дошкольников с помощью мнемических приемов, как мнемический метод влияет на развитие ребенка.

Ключевые слова: Дошкольная образовательная организация, ребенок, сказка, мнемотехника, память, внимание, воображение, умение, метод.

Annotation.

In this article, the role of fairy tales in children's lives, information about folk tales. Development of memory and recall of preschool children through mnemonic techniques, how the mnemonic method affects the child's development is discussed.

Key words: Organization of preschool education, child, fairy tale, mnemonics, memory, attention, imagination, ability, method.

Kirish

Bugungi kunda Respublikamizda ta’lim va tarbiya sohasida oid amalga oshirilgan islohotlar va bu borada yaratilayotgan imkoniyatlar nihoyatda kengayib so‘ngi yillarda davlatimiz

siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Uzluksiz ta’limning dastlabki bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta’lim sohasining ayni paytdagi rivojlanishi buning yorqin isbotidir.

Jumladan O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuning[2] 3-moddasida asosiy tushunchalar sifatida: Maktabgacha ta’lim va tarbiya- bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiyoq o‘rtalimga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim turidir deyilgan. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020 yil 22 dekabrdagi 802-sonli qarori[1] 1-ilovasiga ko‘ra: dastur-muhim vosita bo‘lib, uning yordamida tarbiyachilar (mutaxassislar) O‘zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablariga muvofiq muayyan yosh guruhidagi bolalar uchun eng maqbul va samarali shakllar, metodlar va ta’lim jarayonini tashkil qilish yo‘llarini belgilaydi deb takidlangan.

Insoniy yaxshi fazilatlarni targ‘ib qilish yoki aksincha xarakterdagi yomon jihatlarni bayon etishda eng qulay va ta’sirchan usullardan biri ertak hisoblanib, bolalarga yaxshi va yomonni ajratishga, hayotni bolalar tilida tushunishga yordam beradi. Garchi ertaklar haqiqatga to‘g‘ri kelmasada, bolalarga ijobiy ta’sir qiladigan ta’lim berishning eng samarali usullaridan hisoblanadi. Ertaklar bolalar rivojlanishi uchun asosiy bilimlarni qiziqarli,sodda ko‘rinishda yetkazib beradi. Shuningdek, ertak bolalarning tafakkur doirasini kengaytirib, xotirasini yanada kuchaytirish maqsadida mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sanaladi. Turli-tuman sarguzasht voqealar asosiga qurilgan syujet, o‘zida yaxshilik, insoniylik fazilatlarini singdirgan, xotirada tez saqlanib qolishdek xususiyatiga ega va bayon etishga oson, talaffuz qilishga qulay sintaktik qurilmalardan, tarkibida turli xil jumboqlardan tashkil topgan ertaklar bola tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Uch yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarning aqliy rivojlanishi, fikrlashni shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Bu ertak yordamida bajariladi. Ertak - bu shunday belgilar tizimi bo‘lib, uning yordamida bola atrofdagi voqelikni o‘zi tushungandek talqin qiladi. Ertak tanlayotganda, bolalarning yoshini va ruhan rivojlanganligini hisobga olish lozim. Tarbiyachi va ota-onalar bunga e’tibor bersagina ertaklar bolalalarga foyda keltirishi mumkin. Ertaklardan foydalanish bolalarning qobiliyatlarini rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ertakdan foydalanib, bolalarga ta’lim berishda yuqori natijalarga erishish mumkin.[3]

Asosiy qism.

Ma’lumki, har bir xalqning o‘ziga xos milliy ertaklari bo‘lib, ular o‘zaro bog‘liqdir. Rus tilshunosi, ertak tadqiqotchisi V.Ya.Propp shunday deb yozgan edi: "Ertak xalqlar birligining ramzidir". Bolalar xalq ertaklari, she’r, hikoyalar eshitishni yaxshi ko‘radilar. Bolalar adabiyoti,

avvalo o‘zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining go‘zalligi, tilning ifodaliligi, she’riy so‘zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi.

Xalq og‘zaki ijodidagi eng boy va rang-barang janrlardan biri ertakdir. Ertak – hayot haqiqatiga asoslangan, hayolot va fantastika xususiyatlari bilan yo‘g‘rilgan, odamlarga ibrat-o‘git beruvchi og‘zaki hikoyalar hisoblanadi. O‘zbeklar xalqlari o‘rtasida ertaklar varsoq, cho‘pchak, masal kabi atamalar bilan yuritiladi.

Ertaklarning qimmati bolaning har bir jihatdan o‘sishiga ta’sir ko‘rsatishidadir. Ertaklar bolaga jonajon o‘lka tabiatining kishilarning mehnati va hayotini, ularning qilayotgan ishlari va ko‘rsatayotgan qahramonliklarini yoritib berishga xizmat qiladi. Kishilarning ichki dunyosini yoritib, ularning xarakterlari, his-tuyg‘ulari, xatti-harakatlarini, shuningdek, tasvirlangan hodisalarga yozuvchining munosabatini ko‘rsatib, badiiy adabiyot asarlari bolani hayajonlanishga, asar qahramonlariga achinishga yoki ularni qoralashga undaydi.

Eng yaxshi ertaklar, asarlar bolalarda biror narsaga yaxshi-yomon, adolatli-adolatsiz, to‘g‘rino-to‘g‘ri deb, o‘zlariga xulosa chiqarishiga yordam beradi. Olimlarning fikricha, aynan shu davrda jamoaviylik, vatanparvarlik, tartib-intizom, rostgo‘ylik, xayrixohlik, mehnatsevarlik, halollik, tejamkorlik kabi axloqiy fazilatlarning asoslari yaratilgan. Ertakda insonning jamiyatdagi hayoti, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarning xususiyatlari ko‘rsatilgan. Ularda axloqiy xulqatvorning uzatilishi mavhum tushunchalar orqali emas, balki xatti-harakati bola uchun ahamiyatli bo‘lgan haqiqiy qahramonlarning harakatlari orqali sodir bo‘ladi.

Ertak janri haqida ma’lumot

- Xalq og‘zaki ijodidagi eng boy va rang-barang janrlardan biri ertakdir.
- Ertak – hayot haqiqatiga asoslangan, hayolot va fantastika xususiyatlari bilan yo‘g‘rilgan, odamlarga ibrat-o‘git beruvchi og‘zaki hikoyalar hisoblanadi.
- O‘zbeklar o‘rtasida ertaklar varsoq, cho‘pchak, masal kabi atamalar bilan yuritiladi.

Xalq ertaklari mazmunan 3 guruhga bo‘linadi.

- Hayvonlar haqida hamda majoziy ertaklar(Susambil)
- Sehrli-fantastik ertaklar (Guliqahqah)
- Hayotiy-maishiy ertaklar (Malikai Husnabod)

Hozirgi kunda bolalarni ertaklar bilan tanishtirishda turli usul va metodlardan foydalanimoqda. Bunday usullardan biri mnemotexnika bo‘lib, bu usul bolalarda xotirani rivojlantirishga, ularda eslab qolish qobiliyatini mustahkamlashga juda ham qo‘l keladi. Yaxshi xotiraga ega bo‘lish bolaning bilimlarni oson o‘zlashtirishiga, yangiliklarni tez qabul qilishiga zamin yaratadi.

Mnemotexnika so‘zi grekcha “mnémóē” (xotira va slash) va „téchnē“ (san’at) so‘zlaridan olingan bo‘lib, xotirani san’at darajasiga ko‘tarish ma’nosini beradi.

Sh.Rahmonov va I.Sattiboyevlar o‘zlarining “So‘z yodlash sirlari” nomli kitoblarida mnemonikaga “O’xshashlik va bog‘liqlik asosida xotira hajmiga kengaytirish va kerakli ma’lumotlarni eslab qolish uchun ishlab chiqilgan maxsus uslublar to‘plamidir. Bunda yangi noma’lum bo‘lgan tushunchalar inson ongida allaqachon ma’lum bo‘lgan ma’lumotlar bilan bog`lanadi va natijada yangi ma’lumotni eslab qolish osonlashadi” [4] deb ta’rif beradilar.

Mnemotexnikalar eslash va yodda saqlash uchun yordamchi vositalar hisoblanib, o‘rganilayotgan yoki o‘rganilgan ma’lumotlarni xotirada uzoq saqlash hamda o‘rganilayotgan narsani tezroq yodga tushirishga yordam beradi. Mnemotexnikalar o‘rganilishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarni xotiramizda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarimizga assotsatsiya qilish, oddiy so‘zlarga aylantirish yoki rasmlar, eslab qolish usullari yordamida tez yodga tushirish texnikasidir.[5]

Nemis tadqiqotchilari Shiffrin Und Atkinsonlarning tadqiqotlari o‘quv jarayonini tushunishda mnemotexnikaning katta ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlaydi. Ularning tadqiqotida xotiraning 3 turi haqida so‘z boradi: ultra qisqa xotira, qisqa xotira hamda uzoq muddatli xotira.

Mnemotexnika yordamida o‘rganilganda ikkala miya yarimshari ham faollashadi, chunki konkret va abstrakt (verbal) ma’lumotlar mnemonik “rasmlar”ga bog‘langan bo‘ladi. Shunga ko‘ra assotsatsiyalar yuzaga keladi. Ularning yordamida avval saqlangan ma’lumotga tez murojaat qilish imkoniyati yuzaga keladi. Bunday assotsatsiyalarni yaratishning turli usullari mavjud.[6]

Mnemotexnika usuli bolaning rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

- ✓ Xotira, diqqat, tasavvur qila olish qobiliyati rivojlanadi;
- ✓ Nutqi rivojlanadi, so‘z boyligi ortadi;
- ✓ Atrof-olam haqidagi tasavvurlari kengayadi;
- ✓ Aqliy va hissiy rivojlanish o‘sadi;
- ✓ Aqliy va hissiy rivojlanish o‘sadi;
- ✓ Mnemotexnika miyaning ikkita yarim shari bir vaqtida ishlashini ta’minlaydi;
- ✓ Bolalarda ijodkorlik qobiliyati shakllanadi.

Muhokama va natijalar. Fikrimizcha maktabgacha yoshdagি bolalarni ertaklar bilan tanishtirishda mnemotexnikadan samarali foydalanilsa bolalarni xotira va islab qolish qobiliyatları rivojlanadi.

Mnemotexnika usulida bola obrazli eslab qoladi.

Obrazli eslab qolish

Misol uchun bolaning maktabgacha ta’lim tashkilotidagi shkafchasiiga ertak qahramonlaridan, ayiqning surati yopishtirilgan. Endi u ayiq suratidagi shkaf o‘ziga

tegishlilagini, uning ichidagi kiyimlar va poyafzal ham o‘ziniki ekanligini anglaydi. U o‘qishni bilmasa ham ayiq suratlari javon oldida to‘xtaydi va o‘ziga kerakli narsalarini oladi.

O‘zing ijod qil

Yana bir qiziqarli usul. Bolaga turburchak shakliga joylangan to‘rtta bir-biriga bog‘liq bo‘lмаган surat ko‘rsatiladi. Har bir turburchakdagi rasm bitta so‘zni ifodalaydi. Tasvirlarga tayangan holda bola rasm chizishi kerak.

Zanjir

Ushbu yodlash texnikasining mohiyati tasvirlarni bir-biri bilan bog‘lashdir. Pedagog 4ta bir-biriga mantiqan bog‘langan suratni bolalarga ko‘rsatadi va ularni keyin berkitib qo‘yadi. Bolalar suratlarda nima tasvirlanganini adashmasdan qayta hikoya qilib berishlari kerak.

Kasblar

Pedagog 4 ta kasb egasining suratini ko‘rsatadi. Keyin esa insonlarni kim davolaydi deb so‘raydi. Bolalar uning savoliga javob beradilar. Navbati bilan tarbiyachi qolgan kasb egalari kim kiyim tikadi, kim bolalarga dars beradi, kim qo‘riqlaydi kabi savollar beradi.

Xulosa va tavsiyalar

Bolalarning aqliy tarbiyasi bilan birga, o‘zbek xalq ertaklari orqali axloqiy tarbiyasiga ham ertaklar orqali ta’sir qilish, ularni to‘g‘ri tarbiyalash mumkin. Buning uchun tarbiyachilar ottonalarga bu borada maslahatlar berishi, ertak kitoblarni o‘zлари tavsiya qilishi lozim. Chunki tarbiyachi bolaning yoshiga mos ertaklarni bilganligi uchun to‘g‘ri kitobni tavsiya qila oladi. Shuningdek, ta’lim jarayonida doimo bir xil ertaklardan foydalanish ham kutilgan natijani beravermaydi, doimo yangi ertaklardan foydalanish lozim. Ana shunday sharoitda yangi bilimlar o‘zaro bir-biriga uzviy bog‘lanadi.

Xulosa qilib aytganda, ertaklar orqali bolalar bilimini yanada oshirish mumkin. Ertaklar bolaning rivojlanishida, ayniqsa, ularning aqliy va axloqiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari ertaklar bolalarning tafakkur doirasini kengaytirib, xotirasini ham mustahkamlashini inobatga yangi metodlardan foydalanib bolalarga ertaklarni ularning qiziqishidan kelib chiqqan holda tanlash lozim. Bundan tashqari, tarbiyachi o‘zining pedagogik mahoratini ishlatgan holda ertak qahramonlarini bola qiziqishiga moslab o‘zgartirib ta’lim jarayonida qo‘llasa ta’lim samaradorligi yanada ortadi.

Foydalaniman adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida" 2020 yil 22 dekabrdagi 802-sonli qaroriga
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-sonli Qonuni.
3. Matrizayeva B.S “Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyasida ertaklarning ahamiyati” TA’LIM FIDOYILARI. ISSN:2180-2130 VOL.1,ISSUE 1 IYUN(2022)
4. Sodiqova Sh.A -"Maktabgacha pedagogika." – 2013 yil
5. Mnemotechnik[online], c 2018, abgerufen am 3. 10. 2018 unter: <http://de.wikipedia.org/wiki/Mnemotechnik>
6. Jung, Lothar (2001): 99 Stichwörter zum Unterricht. Deutsch als Fremdsprache, Ismaning Hueber. Unter: <http://www.hueber.de/wiki-99-stichwoerter/index.php/Mnemotechniken> (Stand: 13.10.2014).